


“KELISHILDI”

O‘zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo‘mitasi
Kasaba uyushmasi qo‘mitasi
Raisi

 J. Mirsaidov

2022- yil “26” aprel

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasida
2024- yilda qishloq xo‘jaligi sohasida
ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish
bo‘yicha respublika komissiyasi raisining
o‘rinbosari,
Davlat statistika qo‘mitasi Raisi
 B. Begalov

2022- yil “26” aprel

Sinov tariqasida qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazish ishlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni amalga oshirish davrida tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limiga vaqtincha jalb etiladigan bo‘lim boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari va bosh mutaxassisi uchun mehnat muhofazasi bo‘yicha

Yo‘riqnoma

1- bob. Mehnat muhofazasi bo‘yicha umumiy talablar

1. Tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassisi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi, davlat tilini bilishi, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus (kasb-hunar ta‘limi) yoki oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi, yoshi 20 yoshdan yuqori bo‘lishi, aqli raso, aholi bilan muloqotga kirisha oladigan (gapirish va eshitish qobiliyatiga ega), belgilangan tartibda mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘quv va yo‘riqnomadan o‘tgan bo‘lishi talab etiladi.

2. Tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassisi majburiyatlari:

o‘ziga yuklatilgan ishlarni bajarish va uni bajarishning xavfsiz yo‘llaridan foydalanish;

yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish, yong‘in vaqtida harakatlanish qoidalarini bilish, yong‘inga qarshi vositalardan foydalana olish;

baxtsiz hodisalarda jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatishni bilish;

berilgan ishlarni xavfsiz amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiluvchi ish vaqtida yuzaga keladigan vaziyatlar haqida instruktorga ma‘lumot berish;

shaxsiy gigiyena qoidalarini bilish va unga amal qilish.

3. Ishni bajarish vaqtida tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassisga ishlarni bajarish davrida quyidagi xavfli yoki zararli ishlab chiqarish omillari ta‘sir etishi mumkin:

suyak-mushak tizimining statik ortiqcha yuklanishi;

ko‘rishning zo‘riqishi;

aqliy zo‘riqish;
 ruhiy zo‘riqish;
 tabiiy yorug‘likning yo‘qligi yoki yetishmasligi;
 noqulay ob-havo (meteorologik) sharoitlari;
 harakatlanuvchi transport vositalari;
 hayvonlar yoniga yaqinlashish, ularga qo‘l tekizish, yegulik berish yoki boshqa nojo‘ya harakatlarni sodir etish.

4. Mehnat muhofazasi bo‘yicha ushbu Yo‘riqnoma talablarini bajarmagan tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassislari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

2- bob. Ish boshlashdan oldingi mehnat muhofazasi talablari

5. Ish boshlashdan oldin tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassis quyidagilarga amal qilishga majburdirlar:

ish joyi tashkil etilgan xonani shamollatish;
 ish joyidagi yorug‘likni sozlash (zarur hollarda yoritgichni yoqish);
 ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlari, moddiy qiymatliklarning butligini tekshirish.

3- bob. Ish bajarishdagi mehnat muhofazasi talablari

6. Ish bajarishda tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassis quyidagilarga majbur:

o‘z ish joyida tartib va tozalikni saqlash;
 moddiy qiymatlarning shikastlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;
 ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlarini seyf, yonmaydigan shkaf, metall qutilarda yoki umumiy foydalanish mumkin bo‘lmagan joylarda saqlash;
 faqat chekish uchun mo‘ljallangan joylarda chekish.

7. Tuman hududi bo‘ylab harakatlanishda tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassis quyidagilarga majbur:

Inson hayotiga xavf soluvchi ifloslangan joylar, chuqurlar, ariqlar, zovurlar, yer osti kommunal xo‘jaligi quduqlari, suv omborlari va boshqa to‘siqlardan holi bo‘lgan piyodalar yo‘laklari bo‘ylab yo‘nalish tanlash;

haraktlanishni qisqartirish maqsadida bo‘sh yotgan yerlar, umumfoydalanilmaydigan yo‘llar, chiqindixonalarni kesib o‘tmaslik;

turar joy binolariga kirishda ularda yashovchilardan keyin kirish (binoda qarovsiz va qopog‘on itlar, shaxsiy turar joylarda ochiq yerto‘lalar, omborxonalar va boshqalar bo‘lishi mumkin);

agar binoda fuqarolar spirtli ichimliklar ta'sirida yoki narkotik va zaharli moddalardan foydalanish oqibatida tajovuzkorona xatti-harakat, janjal boshlasa, binosini zudlik bilan tark etish;

yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish, faqat piyodalar uchun muljallangan yoki velosiped yo'lakhasidan yurish, ular bo'lmaganda yo'lning qatnov qismi chetidan transportlarning harakatlanishiga qarama-qarshi yo'nalishda yo'lning chap tomonidan yurish;

ko'cha, avtomobil yoki temir yo'llarni kesib o'tishda tartibga soluvchi yoki svetofor signali yordamida tartibga solinadigan piyodalar o'tish joyi yoki yer osti, yer usti piyodalar o'tish yo'llaridan foydalanish, aksincha ular mavjud bo'lmaganda chorrahaning piyodalar yo'lakhasi yoki yo'lning chet qismi bo'ylab o'tish, yoxud yo'lning ikki tomoni ham yaxshi ko'rinadigan qismidan o'tish;

ko'zga ko'rinadigan joyda yer osti, yer usti piyodalar o'tish yo'li va chorrahalar mavjud bo'lmaganda yo'lning ikki tomoni ham aniq ko'rinadigan qism bo'ylab qisqa trayektoriya bo'ylab kesib o'tish. Bunda ro'yxatdan o'tkazuvchi yo'lning qatnov qismiga chiqish xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilishi va o'z harakati bilan transport vositalarining harakatiga to'sqinlik qilmasligi kerak;

yo'lning qatnov qismida, shuningdek, qarama-qarshi va ro'paradan keluvchi transport vositalarini ajratuvchi gorizontaal yo'l belgisi chizig'ida ushlanib qolish va to'xtash ta'qiqlanadi;

umumiy foydalanishdagi transport vositalarini faqat belgilangan bekatlarda kutish, ular bo'lmaganda piyodalar yo'lakhasida (yo'l chetida) kutish;

ko'k yoki qizil chiroq mayoqchasi yoqilgan transport vositasining yaqinlashib kelayotganini ko'rganda yo'lni kesib o'tish ta'qiqlanadi, yo'lning qatnov qismida bo'lgan ro'yxatdan o'tkazuvchi ehtiyotkorlik choralari ko'rgan holda yo'l chetiga chiqishi kerak;

spirtli ichimliklar hamda narkotik, unga tenglashtirilgan yoki zaharli moddalar iste'mol qilish, shuningdek, ish bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi kasallik bilan bog'liq holatda ish bajarishga ruxsat berilmaydi.

8. Tuman sinov tariqasida ro'yxatdan o'tkazish bo'limi boshlig'i, bo'lim boshlig'ining o'rinbosari, bosh mutaxassisga quyidagilarga ruxsat berilmaydi:

ish joyi tashkil etilgan binoda tez yonuvchi moddalar yoki yoqilg'i materiallari, suyuqliklarni saqlash;

qo'lbola elektr isitish moslamalari yoki ochiq spiralli qurilmalardan foydalanish, ularni ta'mirlash va qarovsiz qoldirish;

elektr simlarini ta'mirlash, elektr lampalarini almashtirishni o'z kuchi bilan amalga oshirish;

nosoz o'tkazgichlardan (rozetkalardan) foydalanish;

yorqin ranglardagi, o'ziga jalb qiluvchi qimmatbaho kiyimlar kiyish va zargarlik buyumlarini taqish, o'zi bilan ko'p miqdorda pul olib yurish;

duch kelgan transportdan foydalanish;
poyezd yo‘llarida yurish, ularni belgilanmagan joylardan kesib o‘tish, turgan vagonlar ostidan va yaqinlashib kelayotgan harakatdagi vagonlar oldidan kesib o‘tish;
uzilgan va yalang‘och elektr simlariga tegish, ular ustida turish;
daydi hayvonlarga yaqinlashish;
xonadonda bo‘lganda xonadon egasining dasturxonga taklifini qabul qilish;
respondentlar bilan bahslashish va nizolashish, shaxsiy hujumlar yoki haqoratlarga javob berish.

4- bob. Ishni yakunlashdagi mehnat muhofazasi talablari

9. Ishni yakunlashda tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassis quyidagi majburiyatlarni bajaradi:
ish joyini ko‘zdan kechirish va tartibga solish;
ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlari, moddiy qiymatlarning butligiga ishonch hosil qilish;
elektr isitish qurilmalarini o‘chirish.

5- bob. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik talablari

10. Favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda (yong‘in, toshqin, yo‘l-transport hodisasi, baxtsiz hodisa) tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, bosh mutaxassislar quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

jabrlanganlarga birinchi yordam (tibbiy) ko‘rsatish choralarini ko‘rish, hodisa joyiga meditsina xodimlarini chaqirish yoki jabrlanganni eng yaqin bo‘lgan sog‘liqni saqlash tashkilotlariga yetkazish;

ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlari, moddiy qiymatlarni saqlash choralarini ko‘rish.

11. Tumanda sodir bo‘lgan barcha hodisalar haqida boshqarmaga xabar berish.